INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT
10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI

UDK: 801.82.81.302

INGLIZ VA O‘ZBEK HARBIY TERMINOLOGIYASINING QIYOSIY-LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Kurganov Anvarjon Muxtorovich,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi
“O‘zbek tili va xorijiy tillar” kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-7015-5919
e.pochta: anvarjonkurganov@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20001494

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi harbiy terminlarning lingvokulturologik hamda leksik-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda harbiy terminlarning shakllanishida turli lingvistik omillar, xususan, o‘simlik, hayvon, qarindoshlik va toponimlarga asoslangan nomlanish modellari ko‘rib chiqilgan. Ingliz tilida bunday terminlarning rang-barangligi va ko‘chma ma’noda qo‘llanishi keng kuzatilsa, o‘zbek tilida esa ularning nisbatan cheklanganligi aniqlangan. Shuningdek, har ikki tilga boshqa xorijiy tillardan kirib kelgan harbiy terminlarning ulushi va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari harbiy terminologiyada milliy va umumiy jihatlar mavjudligini, terminlar orqali til va madaniyatning o‘zaro uzviy bog‘liqligi namoyon bo‘lishini ko‘rsatgan.*

Kalit so‘zlar: *harbiy termin, lingvokulturologiya, leksik-semantika, qiyosiy tahlil, terminologiya, ingliz tili, o‘zbek tili, madaniyat, nomlanish modeli, o‘zlashma terminlar.*

Abstract. *The article presents a comparative analysis of the linguocultural and lexical-semantic features of military terms in the English and Uzbek languages. The study examines various linguistic factors influencing the formation of military terminology, including naming models based on plants, animals, kinship and toponyms. It is observed that English military terminology demonstrates greater diversity and extensive use of figurative meanings, whereas in Uzbek such features are relatively limited. The paper analyzes the proportion and specific characteristics of borrowed military terms in both languages as well. The findings reveal that military terminology reflects both universal and culture-specific features, highlighting the close interrelation between language and culture.*

Keywords: *military terminology, linguoculturology, lexical semantics, comparative analysis, terminology, English language, Uzbek language, culture, naming models, borrowed terms.*

Аннотация. *В данной статье проводится сравнительный анализ лингвокультурологических и лексико-семантических особенностей военной терминологии в английском и узбекском языках. В исследовании рассматриваются различные лингвистические факторы формирования военных терминов, включая модели наименования, основанные на названиях растений, животных, родственных отношений и топонимов. Установлено, что в английском языке военная терминология отличается большим разнообразием и широким использованием переносных значений, тогда как в узбекском языке данные особенности выражены в меньшей степени. Также анализируется доля заимствованных военных терминов и их специфические характеристики. Результаты исследования показывают, что военная терминология отражает как универсальные, так и национально-специфические черты, демонстрируя тесную связь языка и культуры.*

Ключевые слова: *военная терминология, лингвокультурология, лексико-семантика, сравнительный анализ, терминология, английский язык, узбекский язык, культура, модели наименования, заимствованные термины.*

Kirish. Ingliz va o‘zbek tillarida harbiy terminlarining o‘ziga xos bo‘lgan umumiylik va milliylik xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular ushbu til egalarining madaniy hayotini o‘zida aks ettirib turadi. Quyida ingliz va o‘zbek tillaridagi harbiy terminlarning yuzaga kelishida har ikki tilning lingvokulturologik hissasi turli vaziyatlar bilan bog‘liq holda nomlanishiga olib keluvchi lingvistik jarayonlarni ko‘rib chiqamiz:

Adabiyotlar tahlili. 1) Ingliz tilida o‘simlik nomi bilan ataluvchi harbiy terminlar: **Cabbage** so‘zining lug‘atlarda[1.201] ikki xil ma’nosi berilgan. 1) o‘zining o‘simlik “karam” ma’nosida, *(hard round vegetable with green or purple leaves that can be eaten raw in salads or cooked).* 2) ko‘chma salbiy “boshidan shikastlangan yoki tentak” ma’noda *(an offensive word for someone who is completely unable to move or speak because their brain is very badly damaged)* qo‘llanilgan. Harbiy termin sifatida **cabbage** – “bomba” ma’nosini beradi [2.105]. *Fighters sowed their cabbages* – Qiruvchi samolyotlar bomba tashladilar. Ushbu jumladagi **sowed their cabbages**ga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, uning so‘zma-so‘z tarjimasi “karamlarni ekdi” ma’nosini beradi. Biroq, keltirilgan misoldan ko‘rinib turibdiki, **cabbage** harbiy termin sifatida o‘zbek tilida “bomba” ma’nosini anglatadi. Shu termin bilan bog‘liq **Cabbage-kit** *(Cabbage-kit is camouflaged combat-wear that ruffy-tuffy military people wear)* harbiy termin sifatida “komuflyaj” ma’nosini beradi. Masalan, *Look at those ruffy-tuffy squaddies in their cabbage-kit, they look really hard! I think I'll join the army and be just like them [3]. Komuflyajdagi mana bu shalviragan otryadga qarang, ular haqiqatan ham juda abjir ko‘rinadilar! O‘ylashimcha men ham armiyaga borib ular kabi bo‘laman.*

Shuningdek, **sactus** – “Kaktus” diviziyasi, (AQSH) 103-piyoda diviziyasi. Kaktus so‘zi lotin tilida ko‘p yillik o‘simlik ma’nosini anglatadi. Aslida, esa u qadimgi grek tilidan olingan bo‘lib, κάκτος – noma’lum o‘simlik ma’nosini anglatgan. Qo‘shma Shtatlar armiyasida bu maxsus belgi hisoblanib, “harbiy tashkilotga berilgan nom”dir. U harbiy Tarix Markazi tomonidan tasdiqlangan va harbiy tarix rahbari tomonidan imzolangan sertifikatda tan olingan. Tasdiqlangandan so‘ng ushbu belgilar faqat rasmiy ravishda tan olingan bo‘linma yoki uning tan olingan davomchilari tomonidan ishlatilishi mumkin [2.78].

O‘zbek tilida harbiy amaliyot o‘tkazish davrida o‘simlik nomi bilan ataluvchi harbiy terminlar ko‘pchilikni tashkil etmaydi. Masalan, harbiylar tomonidan

O‘zbekiston Respublikasida har yili “**Qora dori – 2019**”, “**Qora dori – 2020**” kabi harbiy operatsiyalar o‘tkazib turiladi[5].

2) Ingliz tilida qon-qarindoshlik bilan ataluvchi harbiy terminlar: **Daddy** – “otajon”, “ota” sardor, kapitan. Ingliz armiyasida tajribali ofitser yosh ofitserga murabbiylik qilsa, unga nisbatan **Daddy**, ya’ni “ota” “sardor” deb murojaat qilinadi. *Every military service has a formal or informal mentoring system. Especially within the officer corps, the right mentor can fast-track a younger officer to a successful career. In the Navy, the unofficial, un-codified, mentorship system is called having a **Sea Daddy[6]**. Har qanday harbiy xizmat rasmiy yoki norasmiy murabbiylik tizimiga ega. Ayniqsa, haqiqiy murabbiy zobit yosh zobitlarning ayniqsa, zobitlar tarkibida muvaffaqiyatli karera qilishlari uchun ularga yordam beradi. Harbiy dengiz flotida (HDF), norasmiy murabbiylik tizimi mavjud bo‘lib, u “Dengiz otasi” deb ataladi.*

Keltirilgan amaliy misoldan ko‘rinib turibdiki, ingliz tilidagi ***daddy*** leksemasi harbiy xizmatdagi yosh ofitserga murabbiylik qiladigan “katta ofitser”ga nisbatan qo‘llaniladi. Shuningdek, **tall boy** so‘z birikmasining so‘zma – so‘z tarjimasi **bo‘yi baland bola** tarzida tarjima qilinsa, harbiy sohada **o‘ta og‘ir bomba**; **og‘ir samolyot**; **qudratli zambarak** ma’nosini beradi. ***The Tallboy*** *or Bomb, Medium Capacity, 12,000 lb, was an earthquake bomb developed by the British aeronautical engineer Barnes Wallis and deployed by the RAF in 1944. It weighed five long tons and, carried by the Avro Lancaster, was effective against hardened structures against which earlier, smaller bombs had proven ineffective[7]. **Tallboy** yoki o‘rtacha og‘irligi 12000 funt keladigan bomba ingliz aviatsiya muhandisi Varnes Uelis tomonidan ishlab chiqilgan va 1944-yilda Qirollik havo kuchlari tomonidan qo‘llanilgan. Uning og‘irligi besh tonnani tashkil etadi va Avro Lankasterda olib borilgan bo‘lib, avval kichik bombalar samarasiz bo‘lgan joylarda u kuchli tuzilmalarga qarshi samarali bo‘lgan.*

O‘zbek tilida qon-qarindoshlik bilan ataluvchi harbiy terminlar uchramaydi.

3) Ingliz tilida hayvon nomi bilan ataluvchi harbiy terminlar: **Elephant gun** – (Firearms, Gunnery, Ordnance & Artillery) a gun used in the hunting of elephants. “Three heavy breech-loading double-eight elephant guns, weighing about fifteen pounds each, to carry a charge of eleven drachms of black powder”. Fillarni ovlashga mo‘ljallangan alohida qudratga ega qurol.

O‘zbek tilida IIV tarkibiga kiruvchi – **Bars** maxsus topshiriqlarni bajarishga ixtisoslashgan alohida harbiy batalon mavjud (7351-harbiy qism). Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi Milliy gvardiya harbiylashgan tuzilma 1992-yil 23-yanvarda Vazirlar Maxkamasining qarori bilan tashkil etilgan bo‘lib, Milliy gvardiya jamoat va davlat xavfsizligini ta’minlashga,

aholini turli xil terrorchilik tahdidlaridan, jinoiy va boshqa g‘ayriqonuniy harakatlardan himoya qilishga, o‘ta muhim toifalangan davlat va boshqa ob’ektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlashga xizmat qiladi. Ushbu tuzilmada xizmat olib borayotgan harbiy xizmatchilarning shevronlarida **“Sher”** surati aks etgan. Doiraning markazida aks etgan **“Sher”** kuch-qudrat, mardlik va adolatlilik ramzi hisoblanadi.

4) Ingliz tilida hasharot yoki parranda nomlari bilan ataluvchi harbiy terminlar: **ladybird** – “xonqizi” deb tarjima qilinadi. Ushbu termin britaniya harbiy “ayol ofitser”lariga nisbatan **ladybird** termini qo‘llaniladi. Ushbu terminning tarkibida “lady” so‘zi bo‘lganligi sababli bu termin “ayol ofitser”larga nisbatan qo‘llaniladi. **Twirly bird** – so‘zma-so‘z “aylanadigan qush” deb tarjima qilinadi. Aslida, harbiy termin sifatida u “vertolyot”ga nisbatan qo‘llanadi. Biroq, o‘zbek tilida hasharot yoki parranda nomi bilan ataluvchi harbiy terminlar qo‘llanilmaydi. **Eagle** – **burgut** ma’nosini beradi. *An Iron Eagle is an American military officer who has attained the rank of colonel but will not be promoted to the rank of general. The term refers to the rank insignia a colonel wears, which resembles an eagle [7].*

Tadqiqotlar metadologiyasi. Biroq ushbu misoldan ko‘rinib turibdiki, “burgut” bu polkovnik unvoniga erishgan, ammo general darajasiga ko‘tarilmaydigan amerikalik harbiy ofitserga nisbatan qo‘llaniladi. Ushbu termin polkovnik kiyimida burgut nishoni aks etgan ordenga ishora qilinadi.

Bundan tashqari, “**Snayper**” so‘zi inglizcha snipe (loyxo‘rak qush) nomidan kelib chiqqan bo‘lib, ushbu qush juda tez uchganligi bois ingliz ovchilari uchun har doim ovlash qiyin bo‘lgan o‘lja bo‘lib kelgan. XVIII asrning o‘rtalarida oddiy chaqmoq miltiq bilan loyxo‘rak qushni ota olgan har qanday ingliz ovchisi mohir mergan xisoblangan. Shu tariqa bugungi kunda mohir merganlarga nisbatan “snayper” (sniper) termini qo‘llanilmoqda[9]. O‘zbekistonda qadimgi qo‘shinlardagi mohir kamonchilar va ovchilar **mergan** deb atalgan[10.536].

O‘zbekistonda qadimgi qo‘shinlardagi mohir kamonchilar va ovchilar mergan deb atalgan. Hozirgi kunda o‘zbek tili harbiy terminologiyasida ham **snayper** termini qo‘llaniladi [10.536].

5) O‘zbek tili harbiy terminologiyasida **o‘rtoqlik sudi** harbiy termini mavjud bo‘lib, harbiy qism jamoatchiligining saylov organi hisoblanadi, or-nomus va qadr-qimmatni muhofaza etish, harbiy intizomni mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va shaxsiy tarkibni tarbiyalashga yaqindan ko‘mak berish uchun mo‘ljallangan. Ammo, ingliz tilida **o‘rtoqlik sudi** mavjud emas, balki umumiy **military court** (harbiy sud) mavjud bo‘lib, ushbu harbiy odil sudlovning asosiy maqsadi qurolli kuchlarda tartib-intizomni saqlashdan iborat. Masalan, Under the

new constitution civilians can be tried by military courts. *(Times, Sunday Times (2014))*, It said that those arrested would be tried in military courts. *(Times, Sunday Times (2011)).*

6) Ingliz tilida harbiy xizmat bilan bog‘liq, uslubiy harbiy terminlar qatoriga quyidagilar kiradi: **silent service** “suv osti floti”. Aslida suv osti floti ingliz tiliga “undersea fleet” deb tarjima qilinishi lozim. Suv osti harbiy kemasining suv ostida sokinlikda, ovozsiz harakatlanganligi sababli uning xususiyatidan kelib chiqib unga **silent service**, ya’ni “sokin xizmat” deb nom berilgan.

O‘zbek tilida **ilg‘or otryad** jang maydonida vazifalarni mustaqil tarzda bajarish uchun ajratiladigan kuchaytirilgan tank bo‘linmasidir[11.122].

7) Ingliz tilida joy nomlari (toponimlar) bilan bog‘liq harbiy terminlar qatoridan quyidagi harbiy terminlar o‘rin egallaydi: “**air base**” – **aviabaza,** hozirgi terminologiyada bu **aerodrom majmuasi**, shu jumladan statsionar uchish-qo‘nish yo‘lagi, yopiq kemerli temir-beton boshpanalar, shuningdek aerodrom infratuzilmasi, jangovar, muhandislik-texnik va moddiy joylashtirilgan aviatsiya va ixtisoslashtirilgan harbiy qismlarning kundalik hayotini va istiqbolli jangovar operatsiyalarini maqsadlari bo‘yicha moddiy-texnik ta’minlash joyi, “**barrack**” – kazarma, yotoq; barak; yotoqqa joylashtirmoq; barak tipidagi binoga joylashtirmoq; flot ekipaji, harbiy qism shaxsiy tarkibini joylashtirish uchun maxsus qurilgan yoki qayta jihozlangan bino.

O‘zbek tilida **“lashkargox”** – qo‘shin qo‘nim topgan joy, **“panagox”** – qo‘shinlar shaxsiy tarkibi va aholini shikast etkazuvchi barcha vositalardan himoya qilish uchun mo‘ljallangan yopiq turdagi maxsus inshoot, **“pana joylar”** – shaxsiy tarkib va harbiy texnikani dushman kuzatuvi va turli zaharli moddalardan himoya qilish va niqoblash uchun foydalaniladigan sun’iy inshoot. **“park”** – harbiy texnika saqlanishi, texnik xizmat ko‘rsatilishi va ta’mirlanishi uchun jihozlangan hudud. **“poligon”** – joyning qurol-yarog‘ va harbiy texnikani sinash, qo‘shinning jangovar tayyorgarligi bo‘yicha tadbirlar va harbiy san’at borasida tadqiqotlar o‘tkazish uchun havo bo‘shlig‘i bilan birgalikda ajratilgan va jihozlangan hudud, **“tog‘ qo‘shinlari” –** tog‘li joylarda harbiy harakatlar olib borish uchun mo‘ljallangan harbiy qo‘shin, **“qorovulxona”** – qorovul shaxsiy tarkibini joylashtirish uchun mo‘ljallangan maxsus jihozlangan xona.

8) Boshqa xorijiy tillardan ingliz tiliga o‘zlashgan harbiy terminlar ham mavjud bo‘lib, ularning aksariyati nemis, fransuz va rus tillaridan o‘zlashgan terminlardir. Ular (**Blitzkrieg** *(yashin tezligidagi urush)***; bunker** *(bunker)***; flak** *(zenit quroli)***; Kaserne** *(kazarma)***; Luftwaffe** *(Harbiy xavo kuchlari)***; Wehrmacht** *(vermaxt)*), fransuz tili (**coup de grace** *(oxirgi zarba)***; elan** *(shiddat)***; esprit de corps** *(korpus)***;**

force de frappe *(zarba kuchi)*; **force majeure** *(fors-major)*; **hors de combat** *(ishdan chiqqan)*) va rus tili **Katyusha** – *(katyusha)* kabi harbiy terminlardir [12.48-52].

Tahlillar va natijalar. O‘zbek tiliga esa rus tili orqali **Botsman** – *(kemadagi kichik komandirlar tarkibiga mansub lavozim)*, **Brigada** – (*Qurolli kuchlarning taktik birlashmasi)*, **Akselbant** – *(faxriy qorovul shaxsiy tarkibi va harbiy paradlar ishtirokchilarining tantanalarga kiyiladigan kiyim elementi. Tilla, kumush yoki turli rangli ipdan to‘qilgan, uchlari metal poynakli bog‘ich bo‘lib, o‘ng elkadagi zar pogonlar ostiga qadaladi)*, **Akustik** – *(gidroakustik stansiyalarga xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassis)*, **Amfibiya** – *(quruqlikda ham suvda ham yurish qobiliyatiga ega jangovar yoki transport vosita)*, **Marshal** – *(ushbu unvon O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi oliy harbiy unvon sanalib, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo‘mondoni va O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziriga (urush davrida) beriladi)*, **Gauptvaxta** – *(hibsga olingan harbiy xizmatchilarni tutib turish uchun mo‘ljallangan maxsus bino) [14.20]* kabi harbiy terminlar o‘zlashib kirgan.

A.M.Kurganov tomonidan tuzilgan 1700 ta ingliz tilidagi harbiy terminlarni o‘z ichiga olgan “Inglizcha-o‘zbekcha harbiy atamalar lug‘ati” asosida tahlil qilinganda ingliz tiliga boshqa tillarda, asosan fransuz va italyan tillaridan o‘zlashib kelgan harbiy terminlar 30%ni tashkil etganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin [13.98].

Sh.Z.Dolimov tomonidan tuzilgan 1570 ta o‘zbek tilidagi harbiy terminlarni o‘z ichiga olgan “Harbiy atamalarning qisqcha izohli lug‘ati” asosida tahlil qilinganda o‘zbek tiliga boshqa tillar, asosan rus tilidan o‘zlashib kelgan harbiy terminlar 70%ni tashkil etganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin[14.394].

Demak, ingliz va o‘zbek tillaridagi turli vaziyatlar bilan bog‘liq harbiy terminlar boshqa tillarda aynan bo‘lmasligi mumkin. Bunday holat terminlarning paydo bo‘lishida turli lingvokulturologik asoslar mavjudligini ko‘rsatadi.

Umuman, harbiy terminlarning ma’no xususiyatlari haqida fikr yuritilar ekan, ularning leksik-semantik hamda lingvokulturologik xususiyatlariga e’tibor qaratish lozim. Chunki, terminlarda xalqning madaniy turmush darajasi o‘z aksini topgan bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, har ikki tilda harbiy terminlarning nomlanishini yaxshi bilmasdan turib, uning o‘ziga xos xususiyatlarini farqlab olish mushkul. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ingliz va o‘zbek tillarida turli vaziyatlar bilan bog‘liq harbiy terminlarning ham o‘z o‘rni bor. Ularni yanada ko‘proq o‘rganish, tahlil va talqin qilish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Har bir xalq o‘zining milliy an’analari, tarixi va adabiyotini o‘z ichiga olgan muayyan milliy madaniyatiga ega. Madaniyatlararo kommunikatsiya, til va

madaniyat aloqalari, til xususiyatlarini o‘rganishda mamlakatlar va ulardagi ilmiy, texnikaviy va harbiy sohalardagi aloqalari muhim mavzulardan hisoblanadi. E.Sepirning ta’kidlashicha: “Til – bu madaniyatni ilmiy o‘rganishda etakchilik, boshlovchilik qilishi bilan muhim ahamiyatga egadir”[15.132]. Til xususiyatlarida har bir millat tabiati namoyon bo‘ladi. Shuning uchun yuqoridagi tadqiqotimizda harbiy terminlar qo‘llanilishining ingliz va o‘zbek tillaridagi ba’zi xususiyatlarini ko‘rib chiqish orqali til madaniyat orqali rivojlanadi degan xulosaga keldik

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Macmillan English dictionary for advanced learners. Second edition. 2007. – P. 201.
2. Г.А.Судзиловский. Англо-русский военный словарь. – М.: 1990 – С. 105; http://zw-observer.narod.ru/slovar/c.html.
3. https://www.urbandictionary.com/define.php?term=cabbage-kit; Dictionary of United States Army Terms (Short Title: AD). Headquarters Department of the Army Washington, DC. 15 October 1983. Military Publications. Unclassified. – P. 7.
4. Судзиловский Г. А. Англо-русский военный словарь. – М.: 1990. – С. 78; http://zwobserver.narod.ru/slovar/-c.html.
5. https://www.gazeta.uz/uz/2018/06/20/qora-dori/
6. https://blog.usni.org/posts/2014/04/22/mentoring-in-the-military-whos-your-sea-daddy
7. https://military.wikia.org/wiki/Tallboy_(bomb)
8. https://www.google.com/search?q=Military+term+%22Eagle%22&rlz=1C1GGRV_enUZ899UZ899&oq=Military+term+%22Eagle%22&aqs=chrome..69i57j0.23013j0j7&sourceid=chrome&ie=UTF-8
9. НАУКА И ТЕХНИКА. https://lenta.ru/articles/2008/08/08/sniper/. Охотники за бекасами. О снайперах и их роли в истории войн. / Студия крыля России. Передача ударная волна.
10. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Алишер Навоий номидаги тил ва адабиёт институти. А.Мадвалиев таҳрири остида. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Б. 536.
11. Samarov. R.S. Harbiy atamalarning yangi izohli lug‘ati. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Qurolli kuchlar Akademiyasi. Innovatsiya-Ziyo. – T.: 2020. – B. 122
12. Мухамедова Л.Д. Француз тилидан инглиз тилига ўзлашган ҳарбий терминлар ёхуд галлицизмлар. Ўзбекистон Республикаси Қуролли кучлар академияси. Ҳарбий таълим ва фанда инновациялар. Илмий-ахборот журнали. 2(4) 2019. –Б. 48-52.
13. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси. Инглизча-ўзбекча ҳарбий атамалар луғати. А.М.Курганов. – Т.:, 2020. –Б. 98.
14. Долимов Ш.З. Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги. Ҳарбий атамаларнинг қисқча изоҳли луғати. – Т.:, 2007. –Б. 394.
15. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: 2001. – С. 132.